

AOKA rahbari “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalari birlashgan tahririyati faoliyati bilan tanishdi



AOKA rahbari “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalari birlashgan tahririyati faoliyati bilan tanishdi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori Asadjon Xodjayev Surxondaryoga safari davomida “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalari birlashgan tahririyati faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Shuningdek, viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov bilan ham uchrashib, hududda soha vakillarini qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotganligini ta'kidladi. Viloyatda axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini yana-da rivojlantirish bo'yicha hamkorlikdagi chora-tadbirlar xususida fikr almashildi.

Ma'lumot uchun, viloyatda 37 ta gazeta - jurnal, 2 ta telekanal, 1 ta radiokanal, 4 ta veb-sayt, markaziy ommaviy axborot vositalarining 13 nafar muxbiri, 4 ta xususiy nashriyot, 2 ta bosmaxona, 58 ta matbaa korxonasi hamda davlat boshqaruv organlarining 54 ta axborot xizmati faoliyat yuritib, 350 dan ortiq xodim mehnat qo'moqda.








Image not found or type unknown

